

“Osmon Card” kredit kartasi bo‘yicha TARIF

1. Foiz stavkasi quyidagilar uchun: 1.1. Foizsiz (Imtiyozli) davr mobaynidagi xaridlar 1.2. Xaridlar 1.3. Naqd pul yechish (va unga tenglashtirilgan operatsiyalar) Xaridlar va naqd pul yechib olish uchun foiz stavkalari skoring natijalariga ko‘ra alohida belgilanadi va Shartnomada ko‘rsatiladi. Naqd pul yechib olish hamda unga tenglashtirilgan operatsiyalarning batafsil tavsifi Tarifning 1-ilovasida keltirilgan.	Yillik 0% Yillik 29% dan 50% gacha, Yillik 29% dan 50% gacha
2. Kartaga xizmat ko‘rsatish uchun to‘lov 2.1. kartani chiqarish va yetkazib berish 2.2. oylik kartaga xizmat ko‘rsatish 2.3. kartani qayta chiqarish: 2.3.1. yangi amal qilish muddatiga yoki Bank tashabbusi bilan 2.3.2. Mijoz tashabbusi bo‘yicha	Bepul Bepul Bepul 50 000 so‘m
3. Karta yoki telefon raqami orqali amalga oshirilgan o‘tkazmalar uchun komissiya Boshqa bank va to‘lov tizimlari ilovalari orqali kredit karta bo‘yicha pul o‘tkazmalari amalga oshirilganda qo‘shimcha komissiya undirilishi mumkin. Komissiya summasi pul o‘tkazish jarayonida ekranda yoki xizmat interfeysida ko‘rsatiladi	Operatsiya summasidan 3%
4. Barcha bankomatlarda naqd pul yechib olish uchun komissiya Naqd pul yechib olish summasidan undiriladi va har bir yechib olish summasining 3 foizini yoki ushbu ikki summadan qaysi biri ko‘proq bo‘lishiga qarab 90 000 so‘mni tashkil etadi. Bankomat egasi bo‘lgan bank tomonidan qo‘shimcha komissiya olinishi mumkin, u bankomat ekranida naqd pul yechib olish vaqtida ko‘rsatiladi.	3%, minimum 90 000 so‘m
5. Minimal to‘lov Bank tomonidan individual tarzda hisoblab chiqiladi va ko‘chirmada ko‘rsatiladi. Agar avvalgi davrlar uchun to‘lanmagan Minimal to‘lovlar mavjud bo‘lsa, ular yangi Minimal to‘lovga kiritiladi. Minimal to‘lovni hisoblash uchun aniq stavka Shartnomada alohida belgilanadi.	Asosiy qarzdand 8% dan ko‘p emas + hisoblangan foizlar.
6. Minimal to‘lov kechiktirilgan taqdirda to‘lov: 6.1. Ikkinchi kundan boshlab muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha oshirilgan foiz 6.2. birinchi kun uchun muddati o‘tgan qarzdorlik bo‘yicha oshirilgan foiz Qarzni to‘lash sanasida Minimal to‘lov to‘lanmagan taqdirda, oshirilgan foiz Ko‘chirma sanasidan boshlab har kuni muddati o‘tgan asosiy qarz summasiga qo‘shiladi.	Kuniga 0,35% Muddati o‘tgan asosiy qarz summasidan 8,75%
7. Kartani to‘ldirish 7.1. TBC UZ mobil ilovasida boshqa kartalardan 7.2. boshqa usullar va hamkorlar orqali	Bepul Hamkor komissiyasi

Qo‘shimcha shartlar:

- Karta to‘lov tizimi - Humo. Kartaning amal qilish muddati - 5 yil.
- Bank hamkorlari orqali kartani to‘ldirishda mablag‘larni kartaga o‘tkazish to‘lov tizimidan tranzaksiya tasdiqlangandan so‘ng (bank kliring natijalarini olgandan keyin) amalga oshiriladi.

Tarifga 1-ilova

POS va CASH operatsiyalarini aniqlash qoidalari

1. Atamalar.

- 1.1. **POS operatsiyalar (Xaridlar)** - jismoniy yoki virtual terminallar hamda naqd pul operatsiyalari mezonlariga mos kelmaydigan mobil ilovalar orqali tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar.
- 1.2. **Cash operatsiyalar (Naqd pullarni yechib olish)** - ushbu qoidalar bilan belgilanadigan naqd pul yechish va naqd pul yechishga tenglashtirilgan operatsiyalar.
- 1.3. **Virtual terminal (ePOS)** - kartalarni o'qish uchun jismoniy qurilmadan foydalanmasdan onlayn operatsiyalarni amalga oshirish uchun mo'ljallangan terminal.
- 1.4. **MCC-kod (Merchant Category Code)** - terminalga ekvayer tomonidan beriladigan to'lov tizimidagi terminal toifasini bildiradi.
- 1.5. **Terminal ID raqami** - terminalga ekvayer tomonidan beriladigan to'lov tizimidagi terminalning identifikatsiya raqami. Terminal ID raqami xariddan keyin to'lov tizimi chekida ko'rsatiladi.
- 1.6. **Tashkilot ID raqami** - to'lov tizimidagi terminal egasi bo'lgan tashkilotning identifikatsiya raqami bo'lib, uni tashkilotga ekvayer tomonidan beriladi. Tashkilot ID raqami xarid amalga oshirilgandan so'ng to'lov tizimining chekida ko'rsatiladi.

2. Agar tranzaksiya amalga oshirilayotgan bo'lsa, operatsiya naqd pul (keyingi o'rinlarda - CASH) olishga tenglashtiriladi:

- 2.1. Naqd pul yechish maqsadida
 - 2.1.1. Tranzaksiya turi - 207 (Naqd pul yechish)
- 2.2. Moliyaviy muassasalar kassalarida
 - 2.2.1. Terminal ID raqam maskasi - xx2xxxxx
- 2.3. Barcha bankomatlarda (ATM)
 - 2.3.1. Terminal ID raqam maskasi - xx7xxxxx
- 2.4. Banklar va moliyaviy muassasalarga tegishli bo'lgan barcha jismoniy terminallarda
 - 2.4.1. Tashkilot ID raqam maskasi - xxxxx000xxxxxx

2.5. Quyidagi MCC-kodli terminallarda (Humo ePOS terminallaridan tashqari):

4829 - Pul o'tkazmalari (masalan, Western Union, MoneyGram).	6051 - Nomoliyaviy muassasalar (masalan, valyuta ayirboshlash, lombardlar).
6010 Moliya muassasalari (banklar, kredit uyushmalari, naqd pul bilan operatsiyalar).	6211 Brokerlik xizmatlari (qimmatli qog'ozlar bilan ba'zan naqd pul bilan bog'liq operatsiyalar).
6011 - Bankomatlar (bankomatlar orqali naqd pul yechish).	6538 - Pul o'tkazmalari (P2P) (masalan, jismoniy shaxslar o'rtasidagi o'tkazmalar).
6012 Moliyaviy xizmatlar (bankomatlardan tashqari naqd pul bilan operatsiyalar).	6540 Bankdan tashqari pul o'tkazmalari (masalan, banklar bilan bog'liq bo'lmagan to'lov tizimlari).

2.6. Xaridlardan tashqari barcha HUMO ePOS terminallarida (quyidagi jadvalda ko'rsatilgan):

Terminal ID raqam maskasi	Operatsiya tavsifi
xx61xxxx	Umumiy to'lovlar
xx620xxx	QR kod orqali to'lov, Joyida to'lov
xx621xxx	Kommunal, davlat to'lovlari, soliqlar

2.7. Jadvalda keltirilgan Cash-terminallarning maxsus ro'yxatiga kiritilgan terminallarda:

Tashkilot ID raqami	Terminal ID raqam maskasi	Nomi
01180000011800D	356105XN	TBC HUMO P2P
4210000042103	1761006I	IPAK MIRZO HUMO P2P
00450000004500A	12610GEO	MILLIY HUMO P2P CARD
01176000011768K	34611148	AKB TENGEBANK APELSIN POGAS
01176000011769P	34611342	TENGEBANK UZPAYNET POGASHEN
4400000044010	026114AD	SQB JOYDA OTKAZMA
4400001088203	02611A9E	SQB KREDIT PAYNET

00433000004332Y	13610JCD	MKBANK PAYNET KREDIT SUNDIR
00433000004335A	13610RC8	MKBANK ONLINE OMONAT MOBIL
01158000011583X	106100GD	OPLATA PAYNET MP KB
9800000098009	2461000A	OCTO MOBILE KONVERSIYA
01125000011252J	08611UY6	PAYNET HUM2UZC NEW
01158000011580A	10610062	KONVERSIYA NA KOSHELKI
01158000011583U	106100FT	VKLAD PRILOJ 24 PK DR BANK
01158000011583X	106100GD	OPLATA PAYNET MP KB
01158000011584C	106100JS	KAPITAL POGASHENIE KREDITA
01183000011832N	6061001U	AJ ANOR BANK PAYNET KREDIT
01183000011832Q	6061001Y	AO ANOR BANK KONV NA 20206
01183000011833A	606100DD	ANORBANK CLICK KREDIT RED
011800000118051	3563364H	TBC POGASHENIE PROCENTOV CC
01183000011834C	60610171	ANORBANK KREDIT APELSIN
01125000011252J	08611UY6	PAYNET HUM2UZC NEW
4440000044406	176100BT	P2P HUMO NA UZCARD
W04350000043503	AC043501	RAKAT ATM1
W08630000086303	AC086301	CHIRCHIK ATM1
9800000098019	2461000M	XATB RAVNAQBANK KREDIT HUMO
00433000004331H	136102VS	PAYME KREDIT SUNDIRISH MKBA
00433000004335Q	13610SA9	MAVRID SUGURTA TULOVI MKBAN

- Mahsulot uchun oziq-ovqat do'koni yoki restoran terminali orqali to'lov qilgan holatlarda tranzaksiya CASH operatsiyasi sifatida tavsiflanishi mumkin bo'lgan holatlar bo'ladi. To'lov amalga oshirilgan terminal ekvayer tomonidan noto'g'ri sozlangan bo'lsa, shunday bo'lishi mumkin. Agar to'lov terminali uning haqiqiy maqsadiga mos kelmasa, bank tranzaksiyani to'g'ri tasniflash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Noto'g'ri ro'yxatdan o'tkazilgan terminallar aniqlangan holatlarda, iltimos, 1150 raqami orqali bankning aloqa markaziga o'z fikringizni qoldiring. Tekshiruvdan so'ng, bank ushbu terminalni keyinchalik POS terminal sifatida toifalash uchun uni oq ro'yxatga kiritishi mumkin.
- Bank ushbu llovaga o'zgartirishlar kiritish orqali operatsiyalar tasnifini va CASH operatsiyalarini aniqlash qoidalariga qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- Ma'lumot uchun, jadvalda CASH va POS operatsiyalariga misollar keltirilgan:

CASH operatsiyalari (Naqd pul yechish va unga tenglashtirilgan operatsiyalar)		POS operatsiyalari (Xaridlar)
Bankomatdan naqd pul yechish	Kredit to'lovlari	Do'konlardagi xaridlar uchun to'lov
Moliyaviy muassasalar kassasidagi har qanday operatsiya	Depozit, hamyon va boshqalarni to'ldirish	Internet-do'konlarda tovar va xizmatlar uchun onlayn to'lov
Istalgan kartalarga pul o'tkazish	Kredit to'lovi uchun avtomat ravishda pul yechib olish	Kafe va restoranlarda to'lov
Banklarda ro'yxatdan o'tgan jismoniy terminallardagi operatsiyalar	Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar	"Payme" ilovasida QR to'lovlar
Valyuta ayirboshlash	Pul o'tkazmalari	Boshqa mobil ilovalarda mahsulot va xizmatlar uchun onlayn to'lov
Lombard operatsiyalari	Rekvizitlar bo'yicha to'lovlar	